

MAVZU: YURIY FEDOROVICH BURYAKOVNING ARXELOGIYA FANIGA KIRIB KELISHI VA ILMIY IZLANISHLARI

Telefon: +998949088601

Irbolayeva Iroda Sodiqjonovna

Namangan Davlat Universiteti Tarix fakulteti 70220401

Arxeologiya mutaxassisligi magistranti

Telefon: +998949088601

quyosh0817@gmail.com

Anontatsiya: Maqolada arxeolog olim akademik Yuriy Fedorovich Buryakovning hayoti O'rta Osiyo arxeologiyasiga kirib kelish tarixi va izlanishlari natijalari haqida, ustozlari Mixail Masson, Galina Pugachenkova, Elena Davidavichlar bilan birgalikdagi faoliyatlari haqida manbalar asosida ma'lumotlar berilgan.

Kalit so'zlar: Poltava, Buryakov Aleksandr Natanovich, Chuy kanali, Mixail Masson, Galina Pugachenkova, Elena Davidavich, Ya.G'.G'ulomov, Ohangaron, Abrliq, Dukent, Piskentdagi Pushti Mahmud yodgorligi, Ulkanto'ytepa, Namudlik, Qirqjangi, Ko'hisim, Oqqo'rg'on, Bo'ka, Yug'ontepa (Danfeganket), Kavardan, Kindektepa, Tunket, Qulota, Jumishqozitepa, Burgulik, Qovunchi, Mingo'rik

Taniqli arxeolog olim, akademik Yuriy Fedorovich Buryakovning nafaqat respublikamiz, balki butun O'rta Osiyoning qadimgi va o'rta asrlar davri tarixi va madaniyatini o'rganishdagi o'rni beqiyosdir. Olimning uzoq yillik izlanishlari va ilmiy tadqiqotlari natijasida dunyo sivilizatsiyasi taraqqiyotida munosib o'rin egallagan Vatanimiz tarixining o'rganilmagan qirralari ochib berildi.

Yuriy Buryakovning bobosi XIX asr oxirida Poltavadan O'rta Osiyoga ko'chib kelgan dehqonlardan biridir. Oila boshlig'i yo'lda vafot etdi. Boquvchisiz qolgan oila Toshkentga joylashdi. Kundalik non topish uchun Yuriyning otasini hali bolaligidanaoq temir yo'l ustaxonalarida ishlashga majbur bo'ldi. Oqish imkoniyati bo'lmagan o'smir, keyinchalik mexaniklikni o'rgandi va haydovchi yordamchisi bo'lib ishladi. Fuqarolar urushi boshlanganida, urushda qatnashdi va yarador bo'ldi. Maxsus o'quv kursini tugatgan Fyodor Buryakov moliya sohasida ishga qabul qilindi. Markaziy Osiyoning moliyaviy tizimi yagona bo'lganligi sababli, ishchilar doimiy ravishda bir joydan ikkinchi joyga ko'chirar edi. Buryakov oilasi ko'plab joylarda yashagan. 1951-yilda Yuriy maktabni bitirgan. Shu yili Buryakov Aleksandr Natanovich Bernshtam boshchiligidagi ilmiy ekspeditsiyaning Chuy kanali orqali o'tishini kuzatdi. Shu yilning yozida O'rta Osiyo Davlat universitetining tarix fakultetiga o'qishga kirdi. O'sha paytda fakultetda Mixail Masson, Galina Pugachenkova, Elena Davidavich kabi o'qituvchilar saboq bergan. Arxeolog olim

Masson rahbarligida Respublikamiz va qo'shni Turkmaniston Respublikasi hududidagi arxelogik yodgorliklarni o'rganish uchun muntazam tashkil etilgan talabalar amaliyotida ishtirok etdi. Bu yosh izlanuvchilarning ilmiy tadqiqot sohasidagi amaliy bilim va ko'nikmalarining shakllanishiga yordam berdi, uni chinakam arxeolog bo'lib yetishiga asos bo'lib xizmat qildi.

U o'qishni muvoffaqiyatli tamomlagandan so'ng ish faoliyati bilan birga arxeologik tadqiqotlarni davom ettirdi. Yosh arxeolog D.G.Zilper bilan birgalikda Toshkent shahrida mebel fabrikasining qurilishi munosabati bilan Mingo'rik yodgorligining saqlanib qolgan ark qismida tadqiqot o'tkazib, ilk o'rta asrlar davriga oid mahobatli imoratlar, muhofaza devorlari va burjlarini o'rgandi. To'plangan arxeologik ma'lumotlarga asoslanib, manzilgohning yozma manbalarida qayd qilingan qadimgi Yuni mulkligining markaziy shahri bilan qiyosladi.

1959-yildan boshlab, O'zbekiston Respublikasi FA Tarix va arxeologiya instituti hamda O'zbekiston xalqlari tarixi muzeyi hamkorlikda Ya.G'.G'ulomov boshchiligida O'zbekiston arxeologiya ekspeditsiyasi tashkil etildi. Uning tarkibida tuzilgan maxsus otryad Ohangaron vohasining arxeologik-topografik va Chotqol – Qurama sanoat hududidagi tog'-kon yodgorliklarini o'rganishga kirishdi.

Ohangaron vohasining arxeologik vohasining, xususan, ko'hna shaharlar va manzilgohlarning o'rganishga qaratilgan edi. 1959-yildan 1968-yilga qadar Yu.F.Buryakov Ohangaron vohasining, xususan, ko'hna shaharlar va manzilgohlarni tadqiq etish ishlarida ishtirok etdi. Imloq-Tunkat, Qulota-Tukkut, Obliq (Abriq, Dukent) (Namudliq, Piskentdagi Pushti Mahmud yodgorligi, Ulkanto'ytepa (kabi ko'hna kabi ko'hna shahar xarobalarini o'rganib chiqqach, ushbu tadqiqotlar natijalarini o'rta asrlar davri yozma manbalari bilan qiyosiy tahlil qildi. Mazkur ko'hna shaharlarining ayrimlarining ochilib qolgan joylarida tozalash ishlari bajarildi. Boshqalarning esa yuzasidan terib olingan moddiy ashyolar o'rganildi.

1963-yilda Shovshaqumtepa, Dalvarzintepa, Xas, Biskat, Qo'rg'ontepa va Qal'aibobo yodgorliklarida tekshirish ishlari olib borgan Yu.F.Buryakov shahar turidagi arxeologik yodgorliklar haqidagi ma'lumotlar doirasini yanada kengaytirdi.

O'tgan asrning 60-yillarida boshlarida Yu.F.Buryakov boshchiligida Chorvoq arxeologiya ekspeditsiyasi voha hududidagi 41 ta arxeologik yodgorliklarni o'rgandi. Ularning 13 tasida qazish ishlari, qolganlarida arxeologik yodgorliklarni o'rgandi. Ularning 13 tasida qazish ishlari, qolganlarida arxeologik-topografik tadqiqot natijalari ham mualliflikdagi "Drevnosti Charvaka" monografiyasida o'z aksini topdi. Mazkur tadqiqot ishlari davomida Yu.F.Buryakovning Pargostepa (Burgush), Shoxjuvartepa (Burchmulladagi Ardlanket) yodgorligida amalga oshirgan qazishma ishlari muhim o'rin tutadi. Tadqiqotchi olim Chotqol tog'ida Choch va Talos vodiysida o'rtasidagi savdo yo'lida joylashgan Burchmulla yodgorligini o'rta asrlar davri Ardlanket shahri bilan qiyosladi. Shuningdek, Pargostepa yodgorligining milodiy I ming yillikning

ikkinchi yarmida Zax Kanali suvini nazorat qiladigan manzil sifatida paydo bo'lgan o'rta asrlardagi Bargish(Parkush) shahri bilan taqqosladi.

1959-yilda olib borilgan arxeologiya tadqiqot ishlarining ikkinchi yo'nalishi Chotqol-Qurama tog'-kon sanoatida hududidagi yodgorliklarni o'rganishga qaratilgan bo'lib, Yu.F.Buryakov tomonidan olib borilgan tadqiqot ishlari natijasida to'plangan arxeologik materiallarning bir qismi tadqiqotchilarning 1966-yilda "Из прошлого Чаткада-Кураминского промышленного района(к истории горного дела и металлургии средневекового Илака)" mavzusida nomzodlik dissertatsiyasini muvoffaqiyatli himoya qilishga xizmat qildi.

Olim tomonidan tog'-kon metallurgiyasi hududidagi Oqtepa, Kengko'l, Naugarzan Lashkerek, Tizgul, Ko'chbuloq, Tog'berdi, Go'shtsoy, Kendirsoy, Shovgaz, Ungirlikon, Ko'ktepa, Qoratosh, Miskon-Qoratepa, Oqjen-Oqtuproq, Sartabutkon, Qolmiqqur, Nakpay, Baliqti, Kulemish, Qo'yliqsoy, Oqtoshkon, Konimansur, Qoratoshqo'ton, Adrasman, Ko'krel, Samarchuk, Qizilolma, Qaynar, Kapturek va boshqa konlardagi yodgorliklar o'rganib chiqilib, ulardan qazib olingan metallar, ularning ko'lami, davri hamda voha ijtimoiy-iqtisodiy va madaniyati, taraqqiyotidagi ahamiyati ochib berildi. Natijada bu o'z davrida O'zbekiston arxeologiyasida yagona bo'lgan Yu. F. Buryakovning "Горной дела и металлургия средневекового Илака. V.в.-начало XIII в." nomli monografiyasining nashrdan chiqishiga asos bo'ldi.

Yu.F.Buryakov olib borgan tadqiqotlar natijalariga ko'ra, Toshkent vohasining qadimgi va o'rta asrlar davridagi ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy tarqiyotini belgilovchi omil Eloq konlaridan mil.avv.II mingyillikning oxirgi choragidan boshlab foydalana boshlangan. Antik va o'rta asrlar davrida Eloq hamda Choch konlaridan foydalanish ko'lami kengayib boradi. Voha VIII-XII asrlar davomida turli metallarni qazib olish bo'yicha O'rta Osiyoda yetakchilik qilib, yirik metallurgiya markaziga aylanadi. Bu yerdagi konlar O'rta Osiyoning o'rta asrlar davri davlatlaridan tashqari Arab xalifaligi, hatto, Sharqiy Yevropaning ayrim davlatlarini tayyor va yarim tayyor mahsulotlar bilan ta'minlagan.

Yu.F.Buryakov o'tgan asrning 60-yillarida II-yarmidan 70-yillarning birinchi yarmiga qadar amalga oshirgan tadqiqotlari vohaning Namudlik, Qirqjangi, Ko'hisim, Oqqo'rg'on, Bo'ka, Yug'ontepa (Danfeganket), Kavardan, Kindektepa, Tunket, Qulota, Jumishqozitepa kabi ko'hna shaharlarini o'rganishdan iborat bo'ldi.

1971-1975-yillarda Tuyabo'g'iz suv ombori hududida yoz mavsumida suv sathining pasayishi natijasida Kindektepa ko'hna shahrining muhofaza devori va burjlari, aylana shakldagi ark va tabiiy handaq-soy bilan ajratilgan shahriston qismida temir eritish o'chog'i, saqlanib qolgan uy-joy imoratlar tekshirilgan. Bu yerdan aniqlangan moddiy ashyolar II-V asrlar bilan sanalib, bu ko'hna shahar tomo'g'illar istelosiga qadar mavjud bo'lgan.

1973-1974-yillarda Yu.F.Buryakov boshchiligidan Kavardan yodgorligida tekshirish ishlari olib borilib, ark va ikkita shahriston qismlarida tashkil topgan. 75 ga maydonni egallagan shahar I asrda shakllanib, XII asrga qadar faoliyat yuritganligini aniqlandi.

1973-1974-yillarda Yu.F.Buryakov rahbarligida Shosh-Eloq arxeolojiya ekspeditsiyasining Sirdaryo o'rta oqimi hududida, Toshkent vihasining janubidagi xalqaro savdo yo'li bo'ylab joylashgan Sharqaya yodgorligida olib borilgan tekshirish ishlari natijasida o'rta asrlar davri ishlab chiqarish inshootlarining ildizlari topilib, o'rganildi. Olim 1974-yili Oqqo'rg'on tumanida Qadimgi Chochning birinchi poytaxti qanha shahrida qazishma ishlariga kirishdi. Bu yerda olimning shogirdi K. Abdullayev 1969-yildan beri qazishma ishlarini olib borayotgan edi.

Yu.F.Buryakov 1970-yillarning bishlariga qadar olib borilgan yodgorliklarni o'rganish va tizimlashtirishga qaratilgan maqsadli ilmiy izlanishlari O'zbekistonda birinchi marta Toshkent vohasining 700 dan ortiq arxeologiya yodgorliklarini jamlagan arxeologik xaritani tuzishga asos bo'lgan "Toshkent viloyati arxeologik yodgorliklari" nomli monografiyasi uchun qimmatli material bo'lib xizmat qildi. Ushbu monografiya hozirga qadar vohadagi arxeologik yodgorliklarni saqlash va muhofaza qilish borasida amaliy ahamiyatini saqlab qolgan.

Yu.F.Buryakov tomonidan o'tgan asrning 50-yillari oxiridan 70-yillarning boshlariga qadar vohaning shahar turidagi yodgorliklaridagi amalga oshirilgan tadqiqot ishlari natijasida aniqlangan arxeologiya materiallari atroflicha o'rganilib, umumlashtirildi. Ular o'rta asrlar arab va fors mualliflari tomonidan qayd etilgan yozma manba ma'lumotlarlari bilan qiyosiy tahlil etildi. Buning natijasida olimning Toshkent vohasining qadimgi va o'rta asrlar davri shaharlari tarixiy topografiyasiga bag'ishlangan "Историческая топография древних городов Ташкентского оазиса (историко-археологический очерк Чача и Илака)" nomli monografiyasi nashr qilindi.

Yu.F.Buryakovning mazkur tadqiqot ishlarida Eloqning o'rta asrlar davri shahar turidagi manzilgohlarining umumiy tavsifi, tuzilishi, davri, shaharsozlik xususiyatlari, vohaning savdo-iqtisodiy va madaniy hayotida o'run tutgan o'rni masalalari tadqiq etilgan. Amalga oshirilgan arxeologik tadqiqot ishlarining natijalarini atroflicha qiyosiy tahlil qilgan monografiya muallifi shaharsozlik madaniyati yuksak darajada rivojlangan janubiy o'troq dehqonchilik hududlari bilan shimoldagi ko'chmanchi chorvador qabilalari o'rtasidagi aloqa hududida joylashgan Toshkent vohasidagi shaharsozlik madaniyatining shakllanishi bevosita janubiy o'lkalar, xususan, So'g'dning madaniy ta'siri natijasi, deb hisoblaydi. Shuningdek, olim Sirdaryo yaqinida joylashgan Qanqa yodgorligining birinchi shahristonidan topilgan moddiy manbaga asoslanib, uning shakllangan davrini mil.av. III-II asrlar deb belgilaydi va shaharsozlik madaniyati taraqqiyotining keying bosqichini milodning boshlariga –

Qovunchi madaniyati taraqqiyoti bilan bog'laydi. Olimning xulosalariga ko'ra, o'lka Turk xoqonligi tarkibiga kiritilgandan so'ng uning xalqaro savdo yo'lidagi ahamiyati nihoyatda ortib, metal konlarini o'zlashtirish ko'lami kengayib borishi va egaligi ixtisoslashgan (feodal) mahalliy davlatlari tashkil topishi oqibatida yirik shahar markazlari rivojlanadi va ularning soni keskin ko'payadi.

1978-1979-yillarda ham Yu.F.Buryakov tomonidan keng ko'lamli tadqiqot ishlari olib borgan tadqiqot ishlari olib borildi. Tadqiqotlar davomida o'rta asrlar davri ishlab chiqarish inshootlari, o'rta asrlar va temuriylar davri mudofaa inshootlar o'rganildi. Sirdaryo ning chap sohilidagi yodgorlik daryo toshqinidan saqlanib qolgan qismining tomonlari 600 metrni tashkil etgan birinchi shahriston va unga tabiiy soylar bilan ajralib turgan shahriston hamda rabot qismlaridan tashkil topgan manzilgohni olim milodning dastlabki davridan XVIII asr boshlariga qadar muntazam rivojlanganligini aniqladi. Bu yodgorlikni tadqiqotchi olim yozma manbalarda qayd etilgan Benoket va Shohruhiya shaharlari bilan qiyoslagan.

Yu.F.Buryakovning turli yillarda olib borgan tadqiqot ishlarining asosiy yo'nalishlaridan biri shaharsozlik madaniyati tarixini o'rganishdan iborat bo'lib, keying ilmiy izlanishlar Movarounnahrning janubiy o'rtoq dehqonchilik hududlari va shimoldagi chorvadorlar madaniyatlari o'zaro aloqada bo'lgan Toshkent vohasining qadimgi va o'rta asrlar davri tarixiy-madaniy jarayonlari va urbanizasiyaning nazariy asoslarini o'rganishga qaratilgan. Natijada arxeolog olim tomonidan vohada ilk o'troq dehqonchilik madaniyati shakllangan mil.avv. I ming yillikning boshlaridan to mo'g'illar istelosiga qadar bo'lgan davr tarixiy taraqqiyotining hozirgi paytda arxeologiya fanidan keng qo'llaniladigan tadrijiy bosqichlari ishlab chiqildi.

Olim Toshkent vohasining qadimgi va o'rta asrlar davri ko'hna shaharlari, aholi manzillari, xom ashyo resurslari va boshqa yodgorliklarni o'rganishda birinchi marta tizimli usullarni qolladi. Shuningdek, voha arxeologiya yodgorliklarini rayonlashtirish tizimini ishlab chiqdi. Bu yerda tabiiy-geografik xususiyatlaridan kelib chiqib, to'rtta hududga va ularni o'z navbatida mikrovohalarga bo'lgan holda rivojlanish xususiyatlarini tadqiq etdi. Yu.F.Burikov tomonidan vohaning qadimgi va o'rta asrlar davrida rivojlangan Burgulik, Qovunchi, Mingo'rik, kavardan madaniyatlari yoki arxeologik majmualarining (ular o'z navbatida bosqichlarga bo'lingan) hozirgi paytda arxeologiya fanida keng qo'llanilib kelinayotgan aniq tizimi ishlab chiqildi. Shuningdek, vohadagi urbanizasiya jarayonlari, xususan, shakllanishi va taraqqiyot bosqichlari hamda ularning xususiyatlari ochib berildi.

Toshkent vohasida shaharsozlik madaniyatining shakllanishi mil.avv. IV-III asrlarda sodir bo'lganligi tadqiqotchi tomonidan aniq ma'lumotlar asosida isbotlangan. Xususan, olim Qanqa yodgorligining birinchi shahristoni me'moriy-rejaviy yechimda O'rta Osiyoning janubiy viloyatlarining ellin davriga oid shahar qurilishini me'morchilik-qurilish usuli umumiyligidan kelib chiqib, Qanqani salavkiylar

sarkardasi Demodamning ko'chmanchlarga qarshi Yaksart ortida barpo etgan qal'asi bilan qiyoslaydi. Shaharsozlik madaniyatining keying taraqqiyoti Qobunchi madaniyatining keying taraqqiyoti Qovunchi madaniyatining rivojlanishi bilan bog'liq bo'lib, olim davrlarga oid 13 ta shahar turidagi manzilgohni, ilk o'rta asrlar davriga tegishli 32ta, o'rta asrlar davridagi 50 dan ortiq shaharlarni qayd etadi. Bu ko'rsatkich o'rta asrlar davri Istarxiy tomonidan Xuroson va Movarounnahrda Toshkent vohasidagi kabi jome' masjidlarga (masjid-musulmon sharqida hshar maqomi-D.N.,R,I.) boy o'lka uchramaydi, degan ma'lumotlarini isbotlaydi.

Yu.F.Buryakovning bu izlanishlari tadqiqotchining "Генезес и этапы городской культуры Ташкентского оазиса" nomli monografiyasida o'z aksini topib, 1984-yili doktorlik desertatsiyasini muvaffaqiyatli himoya qilishga asos bo'lgan.

Olimning Buyuk Ipak yo'li savdosi yo'lidagi uzoq yillik ilmiy izlanishlari natijasida O'zbekistonning qadimgi va o'rta asrlar davri shaharsozlik madaniyati, alohida shaharlar shakllanishi va rivojlanishi hamda ularning taraqqiyoti qonuniyati masalalariga oid boy amaliy tajribalari asosida zamonaviy qarash, yangicha metadalogik yondashuv va qiyosiy tahlil qilingan ishlanmalari yaratildi. Bu Yu.F.Buryakovning "Канка и Шохрухия, Древние города Чача и Илака на Велком шелковом пути" nomli monografiyasida o'z aksini topgan bo'lib, unda ilgari o'rganilgan ko'hna shaharlarda qayta amalga oshirilgan arxeologik tadqiqot ishlari natijasida to'plangan materiallar yangi ilmiy ma'lumotlar bilan kengaytirilgan.

Umuman, tarix va arxeologiya fani fidoiysi akademik Yu.F.Beryakov ilmiy faoliyati davomida Toshkent vohasi misolida O'zbekiston tarixi va madaniyatini o'rganish yo'lida salmoqli ilmiy tadqiqotlarni amalga oshirdi. Chunonchi, dunyo sivilizatsiyasi tarixida munosib o'ringa ega bo'lgan tarixiy-madaniy viloyatlaridan biri Toshkent vohasining qadimgi va o'rta asrlar shaharsozlik madaniyati taraqqiyotining o'ziga xos xususiyatlari, mahalliy hudud, qolaversa, butun O'rta Osiyo iqtisodiy va madaniy rivojlanishida asosiy omil bo'lgan tog'-kon ishlari metallurgiyasi sohasini o'rganishda ijobiy natijalarga erishdi. Yu.F.Buryakov ilmiy izlanishlari va asarlari yurtimiz tarixini o'rganishda muhim o'rin oldi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yhati

1. "Ушел из жизни Юрий Федорович Буряков"
2. "Юрий Федорович Буряков".
3. O'zME. Birinchi jild. Toshkent, 2000-yil.